O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 18 - yanvar 20-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Oqoltin tumani U.Nosir massivi “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida chap tarmoq - 8 kanalini haqiqatta egallab turgan yer maydonini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-204-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 981-sonli qarori va 2021-yil 27- avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari asosida O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi “Boyovut” irrigatsiya tizimi boshqarmasining 2022-yil 21-iyundagi 20-01/06-50-sonli murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari hamda Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasining Oqoltin tumani hududida joylashgan chap tarmoq-8 kanalini va kanalning muhofaza zonasi egallagan yer maydonini Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish maqsadida topografik suratga olish, yo‘qlama (inventarizatsiya)dan o‘tkazish yakunlari

natijalari bo‘yicha taqdim etgan hujjatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi “Boyovut” irrigatsiya tizimi boshqarmasiga, Oqoltin tumani, U.Nosir massivi “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi boshqarmaga qarashli uzunligi 7,8 km bo‘lgan chap tarmoq-8 kanaliga tayyorlangan topografik va qishloq xo‘jaligi xaritalari asosida hisoblangan jami 21,373 gektar (jumladan, 18,047 gektar suv osti yerlari, 3,266 gektar yo‘llar, mollarni haydab o‘tuvchi yo‘llar va 0,060 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bilan band bo‘lgan) yerlardan Y-1724206/B-16734 unikal lot raqamli yer uchastkasini konturlar va yer turlari bo‘yicha ilovaga muvofiq davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. Oqoltin tumani, U.Nosir massivi “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi chap tarmoq-8 kanali, Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi “Boyovut” irrigatsiya tizimi boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli ekanligi inobatga olinsin.

4. Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi “Boyovut” irrigatsiya tizimi boshqarmasi (U.Shakarov)ga chap tarmoq-8 kanalini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlash majburiyati yuklatilsin.

5. Davlat soliq boshqarmasi (J.G‘oyibov), Statistika boshqarmasi (U.Elmuratov), Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (B.Minasipov) tomonidan mazkur qaror asosida tegishli hisobotlarga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Mahmudaliev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 18 yanvardagi
20-9-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Oqoltin tumani, U.Nosir massivi "Bo‘ston" mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan Chap tarmoq-8 kanaliga tayyorlangan topografik va qishloq xo‘jaligi xaritalari asosida doimiy foydalanishga ajratilayotgan yer maydoni to‘g‘risida konturlar va yer turlari bo‘yicha

MA’LUMOT

Kontur raqami	Umumiy yer maydoni (ga)	Jami suv osti yerlari	Shu jumladan:		
			Ariqlar, kanallar va zovurlar	Yo‘llar va mollarni haydab o‘tuvchi yo‘llar	Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar
3145k	4,722	3,962	3,962	0,76	
3146k	0,012	0,012	0,012		
3242k	0,031	0,031	0,031		
3249k	1,324	1,324	1,324		
3255k	0,226			0,226	
3260k	0,056			0,056	
3261k	1,862	1,862	1,862		
3266k	4,362	3,726	3,726	0,636	
3282k	0,193	0,193	0,193		
3283k	0,340	0,340	0,340		
3296k	0,034	0,000		0,034	
3500k	1,144	0,764	0,764	0,38	
3501k	4,249	3,489	3,489	0,76	
3502k	0,028	0,000		0,028	
3527k	0,027	0,000		0,027	
3541k	0,477	0,477	0,477		
3542k	0,054	0,054	0,054		
3543k	1,640	1,460	1,460	0,18	
3544k	0,516	0,276	0,276	0,18	0,06
3551k	0,039	0,039	0,039		
3557k	0,038	0,038	0,038		
21	**21,373**	**18,047**	**18,047**	**3,266**	**0,060**